

## SUN'IY INTELLEKT VA INTELLEKTUAL MULK HUQUQI: HUQUQIY MUAMMOLAR VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

*Muxiddinova Gulnoza Muxiddin qizi*

*Toshkent davlat yuridik universiteti*

*Jinoiy odil sudlov fakulteti talabasi*

*e-mail: gulnozamuxiddinova9@gmail.com*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi sharoitida intellektual mulk huquqiga qo'yilayotgan yangi huquqiy muammolar ko'rib chiqiladi. Tadqiqotning markazida sun'iy intellekt yordamida yaratilgan natijalarning huquqiy maqomi, mualliflik va ixtirochilik subyektini aniqlash masalasi hamda amaldagi qonunchilikning ushbu texnologik o'zgarishlarga moslashuvi turadi. Jahon intellektual mulk tashkiloti— WIPO, AQSh Mualliflik huquqi idorasi, Yevropa patent tashkiloti (EPO) va Buyuk Britaniya Oliy sudi qarorlari — O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Natijada shu ma'lum bo'ldiki, mualliflik va patent huquqi hozircha insonni huquq subyektini sifatida qaraydi; ayni paytda O'zbekiston qonunchiligida sun'iy intellektning ijodkorlik jarayonidagi roli to'g'ridan to'g'ri tartibga solinmagan. Maqola oxirida milliy qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan to'rtta aniq tavsiya ilgari suriladi.

**Kalit so'zlar:** sun'iy intellekt, intellektual mulk huquqi, mualliflik huquqi, patent huquqi, huquq subyektini, AI tomonidan yaratilgan kontent, ixtirochilik, O'zbekiston qonunchiligi, so'rovnomasi, DABUS ishi, training data.

### KIRISH

XXI asrning birinchi choragida sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari, xususan hozirgi kundagi yaratuvchi SI modellar, texnologik taraqqiyotning eng tez rivojlanayotgan sohasiga aylandi. Matn, rasm, video, musiqa va dasturiy kod yaratish qobiliyatiga ega SI tizimlari ijodkorlik, innovatsiya va intellektual faoliyat to'g'risidagi an'anaviy qarashlarni tubdan o'zgartirib yubormoqda. Bugungi kunda SI yordamida qilinayotgan ishlar soni va hajmi shunchalik ko'paydiki, natijada intellektual mulk huquqi institutlari oldiga ilgari hech qachon ko'tarilmagan savollarni qo'yimoqda: bunday natijalar kimga tegishli, ularni qanday himoya qilish mumkin va kimni mualliflik huquqiga loyiq deb hisoblash kerak?

Intellektual mulk huquqi tarixan insonning ijodiy va aqliy mehnatini himoya qilish maqsadida shakllangan. Mualliflik huquqi insonning, patent huquqi esa uning ixtirochilik qobiliyatini e'tirof etadi. O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonunida, asar mualliflik huquqi uning yaratilishi

fakti asosida vujudga kelishi belgilangan<sup>1</sup>; "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi Qonunda esa, sanoat mulki obyektini shaxsiy ijodiy mehnati bilan yaratgan jismoniy shaxs uning muallifi sifatida e'tirof etiladi<sup>2</sup>.

Aynan shu yerda asosiy huquqiy ziddiyat paydo bo'lmoqda. Agar biror asar yoki boshqa narsa SI tomonidan, insonning bevosita ijodiy hissasi bo'lgan yoki umuman bo'lmagan holda yaratilsa, bunday natijaning huquqiy maqomi noaniq qoladi. Bu savol nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ega: SI yordamida yaratilayotgan mahsulotlar rivojlanib borishi sharoitda huquqiy noaniqlik yirik nizolarga sabab bo'lishi muqarrar. Jahon intellektual mulk tashkiloti ham ushbu muammoni global miqyosdagi ustuvor masalalar qatoriga kiritgan<sup>3</sup>.

Muammo faqat yakuniy natija bilan cheklanmaydi. SI modellarini o'qitishda katta hajmdagi matnlar, rasmlar va audiomateriallardan foydalaniladi; bu materiallar esa oldindan mualliflik huquqi bilan himoyalangan. Shunday qilib, SI va IMH o'rtasidagi munosabat faqat natija masalasi emas, balki kirish — o'qitish ma'lumotlari muammosi bilan ham bog'liq.

Ushbu tadqiqotning maqsadi SI va intellektual mulk huquqi o'rtasidagi asosiy huquqiy kolliziyalarni aniqlash, xalqaro yondashuvlarni qiyosiy tahlil qilish, O'zbekiston qonunchiligidagi mavjud huquqiy bo'shliqlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish masalasini asoslashdan iborat. Shuningdek, O'zbekiston uchun xalqaro tajriba qanday huquqiy imkoniyatlar va darslar olinishi mumkinligini ko'rsatib berishdir. Maqolada to'rtta masala ketma-ket ko'rib chiqiladi: (1) SI yordamida yaratilgan asarlarning mualliflik huquqi maqomi; (2) SI ishtirokidagi ixtirolarda ixtirochi masalasi; (3) o'qitish ma'lumotlari va mualliflik huquqi; (4) milliy qonunchilikni takomillashtirishda tavsiyalari.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ushbu tadqiqot metodlarini tahlil qilishda mavzuning murakkab va ko'p muommoli tabiatini hisobga olgan holda, bir vaqtning o'zida ham nazariy ham amaliy jihatlarni qamrab olganligi uchun faqat bitta usul bilan cheklanib qolish mumkin emas edi. Shu sababdan mazkur tadqiqotda to'rtta yondashuvdan foydalanildi.

Birinchidan, formal-yuridik usul yordamida O'zbekiston Respublikasining mualliflik huquqi va patent sohasiga oid amaldagi normativ-huquqiy hujjatlari tahlil qilindi. Xususan, tegishli Qonunlarning muallif va ixtirochi tushunchalari belgilangan

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonuni, 14-modda. [lex.uz](http://lex.uz)

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi Qonuni, 8-modda. [lex.uz](http://lex.uz)

<sup>3</sup> WIPO. (2024). Generative Artificial Intelligence and Intellectual Property Policy. WIPO/IP/AI/GE/24. Geneva: WIPO. <https://www.wipo.int/ai/en/>

normalari, shuningdek Fuqarolik kodeksidagi normalar o'rganildi. Bu usul amaldagi milliy huquqning SI ishtirokidagi natijalarga nisbatan qanday darajada qo'llanilishi va qayerda bo'shliq borligini aniqlash imkonini berdi.

Ikkinchidan, qiyosiy-huquqiy usul orqali O'zbekiston qonunchiligi xorijiy davlatlar — AQSh, Buyuk Britaniya va Yevropa Ittifoqi — hamda xalqaro tashkilotlar (WIPO, EPO) yondashuvlari bilan solishtirildi. Bu yondashuv muammoni keng xalqaro kontekstda ko'rib chiqish va boshqa davlatlardan o'rganish mumkin bo'lgan jihatlarni aniqlash imkonini berdi.

Uchinchidan, tizimli tahlil usuli asosida SI bilan bog'liq huquqiy masalalar o'zaro aloqador institutlar — mualliflik huquqi, patent huquqi, axborot texnologiyalari huquqi, shartnoma huquqi doirasida yaxlit tizim sifatida o'rganildi. Bunday yondashuv alohida institutlarda yuzaga keladigan huquqiy bo'shliqlarning o'zaro bog'liqligini ko'rsatdi.

To'rtinchidan, empirik asos sifatida WIPO, OECD, AQSh Mualliflik huquqi idorasi va EPO rasmiy hujjatlari, xorijiy sudlar amaliyoti, ilmiy-huquqiy manbalar va soha hisobotlaridan foydalanildi. Ushbu empirik baza global tendensiyalarni aniqlash va O'zbekiston sharoitiga moslashtirish uchun xizmat qildi<sup>4</sup>.

## NATIJARLAR

### ***Mualliflik subyekti va qonunchilik***

Barcha tahlil qilingan yurisdiksiyalarda mualliflik huquqining asosiy mezonini "ijodiylik va insonning aqliy mehnati" saqlanib qolmoqda. AQSh Mualliflik huquqi idorasining 2025-yilgi hisobotida ko'rsatilishicha, faqat SI tomonidan yaratilgan asarlar, ya'ni insonning ijodiy hissasiz yaratilgan materiallar mualliflik huquqi bilan himoyalalanmaydi. Biroq inson SI vositasini o'z ijodiy hissalarini asosida yo'naltirsa — tanlash, joylashtirish, tahrirlash orqali yaratilgan asarning ayrim qismlari himoyalaniishi mumkin<sup>5</sup>.

Hisobotda muhim bir jihat ta'kidlangan: oddiy so'rov (prompt) berish o'zidanoq yetarli ijodiy hissa sifatida baholanmaydi. Office o'z 2023-yilgi ro'yxatga olish ko'rsatmalarida ham ushbu pozitsiyani tasdiqlagan va SI ishlatilgan asarlarda inson yaratgan qism bilan SI yaratgan qismni alohida ko'rsatishni talab qilgan. Amaliy

<sup>4</sup> United States Court of Appeals for the Federal Circuit. (2022). *Thaler v. Vidal*, 43 F.4th 1207.

<sup>5</sup> U.S. Copyright Office. (2025, January). *Copyright and Artificial Intelligence, Part 2: Copyrightability*. Washington, D.C.: Library of Congress, p. 7.

mezon shundan iborat: “AI bor yoki yo’q” emas, balki “qaysi aniq element insonning original ijodiy hissasi mahsulidir” degan savol hal qiluvchi hisoblanadi<sup>6</sup>.

Buyuk Britaniyada 1988-yilgi Mualliflik huquqi, dizayn va patentlar to’g’risidagi Qonunning 9(3)-moddasi “kompyuter tomonidan yaratilgan” asarlar uchun muallif sifatida asarni yaratish uchun zarur tartiblarni amalga oshirgan shaxsni belgilaydi<sup>7</sup>.

O’zbekiston Respublikasi “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to’g’risida”gi Qonunida muallif — asarni o’z ijodiy mehnati bilan yaratgan jismoniy shaxs sifatida ta’riflanadi. Jamlanma va hosila asarlarga oid normalarda aynan insonning materiallarni tanlash, joylashtirish yoki qayta ishlashdagi ijodiy hissasi e’tirof etiladi. Shu sababli amaldagi milliy qonunchilik doirasida SI’ni mustaqil muallif sifatida ko’rish uchun hech qanday normativ asos mavjud emas; agar inson SI natijasini tahrir qilsa, tanlasa yoki mazmuniy qayta ishlasa, mualliflik o’sha insonga nisbatan tan olinishi mumkin.

### ***Patent huquqi va SI tomonidan yaratilgan ixtirolar***

Patent sohasidagi vaziyat DABUS ishi orqali xalqaro miqyosda aniq namoyon bo’ldi. Stephen Thaler ixtirochi sifatida faqat SI tizimini ko’rsatib bir qancha davlatlarda patent so’radi. Deyarli barcha yurisdiksiyalarda ariza rad etildi: Yevropa patent tashkiloti o’z qarorida Yevropa patent tizimida ixtirochi faqat tabiiy shaxs bo’la olishini alohida ta’kidladi<sup>8</sup>.

AQSh Federal Apellyatsiya sudi 2022-yilgi Thaler v. Vidal ishida Patent qonuni ma’nosida ixtirochi faqat tabiiy shaxs bo’lishi mumkinligi qoidasini tasdiqladi. Buyuk Britaniya Oliy sudi ham 2023-yilda xuddi shu xulosaga keldi. Amaldagi qonunchilik matni ixtirochi atamasini inson shaxsiga bog’laydi va bu chegarani kengaytirish sud emas, qonunchilik organining vakolatidir.

O’zbekiston Respublikasining qonunchiligida ham ixtirochi sifatida- sanoat mulki obyektini shaxsiy ijodiy mehnati bilan yaratgan jismoniy shaxs e’tirof etiladi. Demak, milliy patent huquqi doirasida ham xalqaro amaliyotga mos inson markazli yondashuv ustuvor bo’lib, SI’ni mustaqil ixtirochi sifatida tan olish uchun normativ asos hozircha yo’q.

### **Ijtimoiy so’rovnoma natijalari**


<sup>6</sup> U.S. Copyright Office. (2025, January). Copyright and Artificial Intelligence, Part 2: Copyrightability, p. 18-22. Hisobotda "human authorship" talabi saqlanib qolishi alohida ta’kidlangan.

<sup>7</sup> Guadamuz, A. (2017). Artificial Intelligence and Copyright. WIPO Magazine, Issue 5/2017, pp. 14-19.

<sup>8</sup> EPO Board of Appeal. (2021). Decision on DABUS Application EP 18 275 163. Munich: European Patent Office. [epo.org/law-practice/case-law-appeals](http://epo.org/law-practice/case-law-appeals)

Maqoladagi nazariy xulosalarni jamoatchilik va bo'lajak mutaxassislarning huquqiy ongi bilan qiyoslash maqsadida Telegram platformasida anonim sotsiologik so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnomada jami 506 nafar respondent ishtirok etdi. Tadqiqot obyekti sifatida asosan 18 yoshdan 35 yoshgacha bo'lgan qatlam tanlab olindi, ularning salmoqli qismini (65% dan ortig'ini) yurist talabalar va soha mutaxassislari tashkil etdi. Bu esa olingan natijalarning huquqiy jihatdan ma'lum darajadagi tushunchaga asoslanganini ko'rsatadi. Savol quyidagicha qo'yilgan: "Sun'iy intellekt orqali yaratilgan asarlarga mualliflik huquqi kimga tegishli bo'lishi kerak deb o'ylaysiz?" Natijalarga ko'ra, respondentlarning 45 foizi huquq SIga prompt bergan shaxsga tegishli bo'lishi kerak, deb hisoblagan; 15 foizi huquqning bevosita SIning o'ziga tegishli bo'lishini yoqlagan; 12 foizi esa huquq SI tizimini yaratgan shaxsga berilishi kerakligini bildirgan. Qolgan 28 foiz ishtirokchi bunday natijalarni umumiy mulk, ya'ni ijtimoiy mulk sifatida baholagan.

Mazkur natijalar shuni ko'rsatadiki, jamoatchilik ongida sun'iy intellekt yordamida yaratilgan natijalarda hal qiluvchi omil sifatida texnik tizimning o'zi emas, balki undan foydalanayotgan subyekt ko'proq ko'rilmoqda. Ayniqsa, eng katta ulushning prompt beruvchi foydalanuvchi foydasiga to'plangani amaliy muomalada huquq egasi sifatida aynan topshiriq beruvchi va natijani shakllantiruvchi shaxsni tan olishga moyillik kuchli ekanini bildiradi. Biroq bu pozitsiya amaldagi mualliflik huquqi doktrinasini bilan to'liq mos kelmaydi. Huquq prompt berish faktining o'ziga emas, balki insonning real ijodiy hissasi, tanlovi, tahriri va yakuniy natijaga qo'shgan ijodiy ulushiga bog'liq holda baholanishi kerak. Shu sababli so'rovnoma natijalari normativ yechim emas, balki huquqiy islohotlar uchun muhim signal sifatida baholanishi maqsadga muvofiq.



1-rasm

## MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari va xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, hozirgi bosqichda SI'ni mustaqil huquq subyekti sifatida emas, balki ijodiy vosita sifatida ko'rish nazariy va amaliy jihatdan eng asosli yondashuv hisoblanadi. Buning uchun bir necha sabab bor. Birinchidan, mualliflik huquqi nafaqat iqtisodiy manfaatlarni, balki shaxsiy nomulkiy huquqlarni ham himoya qiladi Muallif sifatida tan olinish, asarning daxlsizligi, ismi ko'rsatilishi kabi huquqlar tabiatan inson shaxsiga xos. Ikkinchidan, huquqiy javobgarlik mexanizmlari insonni nazarda tutadi: SI yaratgan kontent birovga zarar yetkazsa, javobgarlik uni yaratgan, ishlatgan yoki tijorat maqsadida qo'llagan insonga tushadi<sup>9</sup>. Uchinchidan, intellektual mulk huquqining fundamental asosi bo'lgan "ijodiy o'ziga xoslik" tushunchasi bevosita insonning ongli tanlovi bilan bog'liq. SI algoritmlari qanchalik mukammal bo'lmasin, ular faqat berilgan ma'lumotlar asosida ehtimollik modellarini quradi. Haqiqiy ijodiy turtki, g'oya va yakuniy natijani saralash esa baribir inson tomonidan amalga oshiriladi. Shu bois, SI ni mustaqil muallif emas, balki insonning intellektual qobiliyatlarini kengaytiruvchi murakkab texnik vosita sifatida tan olish huquqiy mantiqqa ko'proq mos keladi.

Biroq bu yondashuvning ijobiy tomonlari bo'lgani kabi, zaif tomoni ham bor. Zamonaviy SI modellari shunchalik murakkabki, ularning yakuniy natijasida foydalanuvchining hissasi ba'zan juda oz bo'ladi. Bir qisqa so'rov bilan 50 sahifalik asar yaratgan foydalanuvchi avtomatik ravishda muallifmi? Bu savol mualliflik mezoni nuqtai nazaridan javobsiz qolmoqda. Shu sababli SI-assisted (SI yordamida) va SI-

<sup>9</sup>Abbott, R. (2020). The Reasonable Robot: Artificial Intelligence and the Law. Cambridge University Press.

generated (SI tomonidan to'liq) natijalar o'rtasidagi chegarani normativ darajada aniq belgilash dolzarb masalaga aylanmoqda.

Qiyosiy tahlil natijalariga asoslanadigan bo'lsak, O'zbekiston uchun inqilobiy emas, balki evolyutsion — bosqichma-bosqich huquqiy islohot samaraliroq bo'lishi mumkin. Birinchi bosqich sifatida qonunchilikda “insonning ijodiy hissasi” mezonini joriy etilishi kerak. Inson g'oya berish, yo'nalish belgilash, tanlov qilish, tahrir etish yoki asosiy qarorlar qabul qilish orqali hissa qo'shgan bo'lsa, huquq unga beriladi.

Ikkinchi bosqich sifatida, SI tomonidan to'liq yaratilgan natijalar uchun ikki yo'ldan biri tanlanishi mumkin: bunday natijalar himoyalangan (ommaviy mulk) yoki ular uchun cheklangan, maxsus rejim joriy etiladi. Bunday yondashuv Buyuk Britaniyaning tajribasida foydalanilgan bo'lib, an'anaviy mualliflik institutining mohiyatini buzmaydi<sup>10</sup>.

O'qitish ma'lumotlari masalasida O'zbekiston uchun Yevropa Ittifoqining shaffoflik modeli ko'rsatma bo'la oladi. Qonunchilikda SI modellarini tijorat maqsadida o'qitishda foydalanilgan mualliflik huquqi bilan himoyalangan materiallarni oshkor qilish majburiyati belgilanishi, litsenziyalash mexanizmlari kengaytirilishi hamda huquq egalariga adolatli kompensatsiya olish imkoniyati yaratilishi zarur. Bu chora-tadbirlar SI sanoatining rivojlanishiga to'sqinlik qilmaydi, aksincha, uning barqaror va huquqiy asosda rivojlanishini ta'minlaydi.

Bundan tashqari, WIPO doirasida muhokama qilinayotgan attribution (manbani ko'rsatish), compensation (kompensatsiya) va rights management (huquqlarni boshqarish) masalalari O'zbekiston uchun ham keng huquqiy islohot dasturi doirasida ko'rib chiqilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. OECD hisobotida scraping amaliyoti ko'p yurisdiksiyalik nizolarni keltirib chiqarishi va ma'lumotlar haqiqiyliги masalasini murakkablashtirishi qayd etilgan, bu muammo O'zbekistonga ham tegishli bo'lmoqda<sup>11</sup>.

Tadqiqot natijalari asosida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha quyidagi to'rt yo'nalishni tavsiya etishimiz mumkin:

1. “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida”gi Qonunga SI yordamida yaratilgan asarlarning huquqiy maqomini va “insonning ijodiy hissasi” mezonini belgilovchi alohida modda yoki norma kiritish.
2. “Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida”gi Qonunda SI ishtirokidagi ixtirolarda ixtirochilik hissasini baholash mezonlarini belgilash va inson bilan SI o'rtasidagi munosabatni normativ jihatdan tartibga solish.

<sup>10</sup> Yanisky-Ravid, S. (2017). Generating Rembrandt: Artificial Intelligence, Copyright, and Accountability. Michigan State Law Review, 2017, pp. 659-726.

<sup>11</sup> OECD. (2025). Intellectual Property Issues in Artificial Intelligence Trained on Scraped Data. OECD Digital Economy Papers. Paris: OECD Publishing. doi: 10.1787/ip-ai-scraped-data-2025.

3. SI modellarini o'qitishda ishlatiladigan mualliflik huquqi bilan himoyalangan materiallar bo'yicha shaffoflik, litsenziyalash va kompensatsiya mexanizmlarini rivojlantiruvchi qonunchilik me'yorlarini ishlab chiqish.

4. Sudlar va intellektual mulk davlat idorasi uchun "insonning hissasi" mezonini bir xil talqin qilishni ta'minlovchi metodik ko'rsatmalar tayyorlash va ularni rasmiy hujjat darajasida qabul qilish.

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, sun'iy intellekt va intellektual mulk huquqi o'rtasidagi munosabat zamonaviy huquqning eng murakkab va dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, mualliflik huquqi ham, patent huquqi ham hozircha asosan inson markazli modelni saqlab qolmoqda. AQSH mualliflik amaliyoti, EPO, Buyuk Britaniya sud amaliyoti va O'zbekistonning amaldagi qonunchiligi buni tasdiqlaydi. Mualliflik va ixtirochilik instituti hozircha jismoniy shaxs bilan bog'lanadi.

Biroq SI rivoji ushbu modelning cheklovlarini ham ochib bermoqda. Ayniqsa, to'liq avtonom yaratilgan natijalar, SI yordamida topilgan texnik yechimlar va modelni o'qitishda qo'llaniladigan ma'lumotlarning huquqiy maqomi bo'yicha mavjud normalar yetarli aniqlik bermaydi. Shu bois O'zbekiston uchun eng maqbul yo'l — AI'ni darhol mustaqil huquq subyekti sifatida tan olish emas, balki inson hissasining darajasiga asoslangan, training data shaffofligini ta'minlaydigan va huquq egalarining manfaatlarini muvozanatlashtiradigan bosqichma-bosqich huquqiy islohotlarni amalga oshirishdir.

Mazkur yondashuv intellektual mulkning asosiy maqsadini — ijod va innovatsiyani rag'batlantirishni — saqlagan holda, sun'iy intellekt davri ehtiyojlariga javob beruvchi zamonaviy huquqiy modelni shakllantirish imkonini beradi. Shu sababli kelgusidagi ilmiy izlanishlar AI-assisted va AI-generated obyektlar o'rtasidagi farqni yanada aniq belgilash, shuningdek, milliy sud amaliyoti uchun qo'llanma mezonlar ishlab chiqishga qaratilishi lozim.

Kelajakda SI va intellektual mulkning muvofiqlashtirilgan huquqiy modeli ijodkorlarni himoya qilish bilan birga innovatsiyani ham rag'batlantirishi lozim. Bu esa inson va sun'iy intellekt o'rtasidagi ijodiy hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonuni
2. O'zbekiston Respublikasi "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi Qonuni

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 13-maydagi PQ-358-son Qarori " Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida "
4. World Intellectual Property Organization (WIPO). (2024). Generative Artificial Intelligence and Intellectual Property Policy. WIPO/IP/AI/GE/24. Geneva: WIPO
5. U.S. Copyright Office. (2025, January). Copyright and Artificial Intelligence, Part 2: Copyrightability. Washington, D.C.: Library of Congress. <https://www.copyright.gov/ai/>
6. U.S. Copyright Office. (2025, May). Copyright and Artificial Intelligence, Part 3: Generative AI Training (pre-publication). Washington, D.C.: Library of Congress. <https://www.copyright.gov/ai/>
7. U.S. Copyright Office. (2023). Copyright Registration Guidance: Works Containing Material Generated by Artificial Intelligence. Federal Register, Vol. 88, No. 51. <https://www.federalregister.gov>
8. European Patent Office (EPO). (2021). Decision on DABUS Application (EP 18 275 163). Technical Board of Appeal. Munich: EPO. [epo.org](http://epo.org)
9. United States Court of Appeals for the Federal Circuit. (2022). Thaler v. Vidal, 43 F.4th 1207. <https://www.cafc.uscourts.gov>
10. UK Supreme Court. (2023). Thaler v. Comptroller-General of Patents, Designs and Trade Marks [2023] UKSC 49. [supremecourt.uk](http://supremecourt.uk)
11. Directive (EU) 2019/790 on copyright and related rights in the Digital Single Market (DSM Directive), Articles 3-4. OJ L 130, 17.5.2019. EUR-Lex.
12. Regulation (EU) 2024/1689 on Artificial Intelligence (AI Act), Article 53. Official Journal of the European Union. EUR-Lex.
13. OECD. (2025). Intellectual Property Issues in Artificial Intelligence Trained on Scraped Data. OECD Digital Economy Papers. Paris: OECD Publishing.
14. Guadamuz, A. (2017). Artificial Intelligence and Copyright. WIPO Magazine, Issue 5/2017, pp. 14-19.
15. Yanisky-Ravid, S. (2017). Generating Rembrandt: Artificial Intelligence, Copyright, and Accountability. Michigan State Law Review, 2017, pp. 659-726. Article
16. Abbott, R. (2020). The Reasonable Robot: Artificial Intelligence and the Law. Cambridge: Cambridge University Press.
17. Grimmelmann, J. (2023). Training Data and Authorship. Journal of the Copyright Society of the USA, 70(2), pp. 1-38.